

Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934)



Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934)



Atoqli shoir, xattot va tarjimon Sirojiddin Maxdum Mirzohodoxund o'g'li Sidqiy 1884 yili hozirgi Bo'stonliq tumani Xondayliq qishlog'ida tug'ilgan. Arab, fors tillarini o'rgangan. Xattotlikka qiziqqan, zamonasining mashhur qilqalami Muhammad Shohmurod kotib (1850—1922)ga shogird tushgan. Sidqiy tosh yo'nib, unga ishlov berish, turli bezaklar tushirish, suratlar ishlash, muhr yasash bilan ham shug'ullangan. Ayni paytda she'r mashq qilgan.

Shoir sifatida shakllanishida Kamiyning xizmati katta bo'lган. U boshliq adabiy davralarda faol ishtirok etgan. Ilk she'rlarini «Shuhrat», «Shevan» (nola, fig'on) taxalluslari bilan yozgan («Tuhfai Shavkat», 1913; «Savg'oti Shavkat», 1914 — to'plamlar). Keyinroq barcha asarlarini Sidqiy Xondayliqiy taxallusi bilan chop ettirgan. Lirk she'rlarida mumtoz adabiyotimizdagi hayotiy, insoniy muhabbat, odamiylik singari yaxshi an'analarni davom ettirgan. Poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy she'rlar tashkil qiladi. Ijtimoiy-siyosiy she'rlari esa davrning muhim voqealariga bag'ishlangan («Muhoraba», «Yashasun yoshlari», «Toza hurriyat» va b.). Mardikorlik voqealarini haqida asarlar yozgan [«Rabo(t)chilar namoyishi». «Rabo(t)chilar kelishi», 1917].

Sidqiy Xondayliqiyning «Rusiya inqilobi» dostoni (1917, mart) Rusiya inqilobi voqealarini keng epik planda tasvir etuvchi dastlabki asar. Dostonning hajmi 1502 misra. Shundan 72 misrasi fors-tojik tilida, qolgani o'zbekchada yozilgan. Voqealar 23 fevral — inqilobning birinchi kuni tasviridan boshlanadi, so'ng kunma-kun beriladi. Sidqiy Xondayliqiy Fevral inqilobini quchoq ochib qarshi olsada, uning natijalaridan qanoatlanmagan. Doston inqilobdan keyingi sharoitni jiddiy va atroflicha tahlil etish, barchani birlikka, hamjihatlikka chorlash

bilan yakun topgan. Bu g'oya «Umidi ittifoq» (1918) tarji'bandida davom etadi.

Sidqiy Xondayliqiy «Tazkirai imomi A'zam», «Sad irshodi mulla Sidqiy Xondayliqiy» («Mulla Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihatı»), «Mezoni shariat» (1915, 1917, 1992), «Zarbulmasali Sidqiy», «Holoti Sidqiy» kabi nasriy asarlar ham yozgan. Ularning ko'pchiligi diniy-axloqiy mavzuda.

«Hikoyai latifa», «Bahrom va malikai Gulandom», «Ajoyib ul-maxluqot», «O'g'ri va qozi», «Bo'ston» (Sa'diy) kabi asarlarni tarjima qilgan. Sidqiy Xondayliqiy ko'chirgan devon, bayoz va risolalar, yasagan muhrlari nusxalari, toshlavhalar hamda chizgan To'ychi Hofiz va Tavallo suratlari xususiy va davlat kutubxonalarida, shuningdek, 20 dan ortiq bosma va qo'lyozma asarlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

2023-09-11 16:17:55